

MUFTIY MAHMUDXO'JA BEHBUDIY NAZDIDA TIL MASALASI

Nosirjonov Faxriddin Muxiddin o'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi,

Respublika yosh olimlar kengashi a'zosi

E-mail: hazratibobur@gmail.com

Ilmiy rahbar: M.M.Agzamova

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada XX asrda yashab ijod qilgan muftiy Mahmudxo'ja Behbudiyning "Til masalasi" nomli maqolasi va tilga oid ijod namunalari asosida til o'rganishning zarurligi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'z: Muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy, "Til masalasi", "Vaqt", "Sho'ro", "Yulduz", forsiy, turkiy, Ichkari Rusiya, Kafkaz, matbuot.

Mashhur ruhshunoslar xorijiy tillarni o'rganish inson dunyoqarashini o'zgartirish xususiyatiga ega degan fikrni bugungi kunga kelib ta'kidlamoqdalar. Biror-bir xalqning turmush tarzini, mentalitetini, dunyoqarashini o'rganish uchun o'sha xalqning tilini o'rganish lozim bo'ladi. Shuning uchun ajdodlarimizning barchasi xorijiy tillarni o'rganganlar va natijada qomusiy olim bo'lib yetishganlar. Ulug' alloma va faylasuf Abu Nasr Farobiyning 70 dan ortiq, ba'zi manbalarda 80 dan ortiq tillarni bilganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Shuning uchun ham Abu Nasr Farobiy Aristotelning asariga sharh yozgan. Albatta biror-bir asarga sharh yozish taqdidqotchidan tadqiqot ishi ta'lif qilingan tilni puxta bilishini talab qiladi. Lekin yana bir ma'lumotni aniq ayta olamanki, hali hamon Abu Nasr Farobiydek hech kim ko'p tillarni o'rgana olmadi. Internet manbalarida xabar qilinishicha, dunyodagi ilk sinxron tarjimonlaridan biri bo'lmish Kato Lomb asl mutaxassisligi kimyo fani bo'lishiga qaramay, 8 tildan qiyinchiliksiz tarjima qilgan, 16 tilda erkin muloqot qilishni uddalagan. Uning "Men tilni qanday o'rganaman?" nomli betseller asarida xorijiy til o'rganishning oddiy va oson usullari 10 ta qoidaga asosan keltirib o'tilgan. Yana bir ulug' ajdodimiz Mahmud Zamaxshariy arab tilini puxta bilgan va o'zining Qur'oni Karim tafsiriga bag'ishlangan Al-Kashshof asarini ham shu tilde yaratgan. Mahmud Zamaxshariy haqida so'zlagan olimlar ul zotning arab xalqiga arab tili grammatikasini yaratib berganligi haqida so'zlaydilar. Mahmud Zamaxshariy bobomizni arab xalqi g'oyatda hurmat va ehtirom qilgani haqida tarixiy ma'lumotlar mavjud. Ul zotning "Jorulloh" ya'ni "Allohning qo'shnisi" deb atalishining sababi, "Baytulloh", ya'ni "Allohning uyi" hisoblanmish Ka'baning atrofidagi uylar buzilishiga to'g'ri keladi,

ammo, faqatgina Mahmud Zamaxshariyning uyigina saqlab qolinadi. Baytullohga faqatgina Xorazimning Zamaxshar qishlog'idan bo'lgan Mahmud Zamaxshariygina qo'shni bo'lib qoladi. Ko'rinib turibdiki, ko'p til bilishning koni foyda. Xalqimiz orasidagi "Bitta til bilgan bir kishi, ikkita til bilgan ikki kishidir", "Til bilgan el biladi" kabi iboralar bejiz paydo bo'lmagan. Shuning uchun ham muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy til o'rganishning va bilishning zarurligini ta'kidlagan va o'zi ham huddi filologlardek asarlarida so'zlarni tahlil qilganini ko'rish mumkin. E'tibor qiladigan bo'lsak, aynan muftiy Mahmudxo'ja Behbudiyning yashab ijod qilgan davrida tilimizga yangi-yangi so'zlar kirib kela boshagan edi. Keyinchalik bu so'zlar o'zbek tilida "olinma so'zlar" sifatida qabul qilingan. Jumladan misol tariqasida "kollej", "litsey", "aeroport", "samalyot" va boshqalar. Muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy bu haqda quyidagicha yozadi: "Turkchanning shu'ba va shox(a)lari bo'lgan o'zbekchig'atoy, tatar, ozarbayjon, qozoq va turkman lahjalaridagi yangi matbuotning eng ahamiyatlik masalalaridan biri, albatta, sheva, lahja, imlo masalalaridur. Yuqoridagi lahjalarg'a so'ylayturgon turk bolalari bir-ikki ming sanadan beri Eron xalqining alarg'a va yo alarni(ng) eroniylarg'a istilo etganlari sabababidan fors madaniyati va adabiyoti va lug'atlari nufuziga mahkum bo'lub, fors tilidan bir xeyli lug'at va jummalarni xohu noxoh abadiy va doimiy suratda olganlarki, u jumla va lug'atlardan bir qismini turkiy lahjalardan chiqarib tashlamoq go'yo mumkin emasdur"¹.

Demak, yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, biz yuqorida keltirib o'tgan "olinma so'zlar"ga mansub bo'lgan yangi kirib kelayotgan so'zlar tilning shakllanish jarayonida avval ham bo'lgan. Eron xalqining istilolari yoki turkiy xalqlarning eronga yurishlari natijasida fors tilining turkiy tillarga ta'siri bo'lmay qolmagani haqida bilib oldik. Muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy oddiy hayotiy misollarni ham keltiradi. Misol uchun biz har kuni so'zlaydigan hafta kunlarini keltirishimiz mumkin. Bu borada yana muftiy Mahmudxo'ja Behbudiyning "Til masalasi" nomli maqolasida keltirilgan quyidagi ma'lumotlariga yuzlanamiz: "Balki... biz turkchag'a bugun iste'mol qilinaturgon ba'zi forsiy so'zlarimizni muqobil va murodifi xalq tilidan va adabiyotidan yo'qolgandur. Masalan, shanba, yakshanba, dushanba, seshanba, chahorshanba, panjshanba, odina kunlarining oti kabi... Hol shunday ekan, yana yuqoridagi turkiy lahjalarning xalqi o'n ikki asrdan beri din manbayimiz va Qur'oni karim tili bo'lgani arabiyning nufuzig'a uchrab, tabarrukan va majburan ko'p lug'at va jummalarni andan oladilar. Va ba'zi ifrotparastlar tarafidan yangidan bu kung'acha yana olinmoqdadir".

Yuqoridagi ma'lumotlardan anglashiladiki, turkiy tilimizga fors tilidan kirib kelgan so'zlar bilan birga arab tilidan ham ko'plab so'zlar kirib kelgan. Arab tilidan kirib kelgan so'zlarni xalqimiz tabarruk so'z sifatida qabul qilganlar. Misol uchun doim

¹ Behbudiy, Mahmudxo'ja Tanlangan asarlar. J.2. – Toshkent: Akademyashr, 2021. 27-bet

salomlashganda foydalanadigan soʻzimizni olaylik. “Assalamu alaykum” deb salom berilsa, “Va alaykum assalam” deb alik olinadi. Ikkisi ham arab tilidan olingan soʻzlar hisoblanadi. Arab va fors tillarni biladigan shaxslar turkiy tillarga kirib kelgan “olinma soʻzlar” haqida bilishi mumkin. Shu oʻrinda savollar ham tugʻiladi. Qanday qilib turkiy tillarga arab va fors tillaridan soʻzlar kirib kelgan boʻlishi mumkin? Bu fikrlarni nima bilan tasdiqlaysiz? Keltirilgan fikrlarni muftiy Mahmudxoʻja Behbudiyning baʼzi mulohazalari bilan dalillash mumkin. Jumladan “Xoʻqand xoni Umarxon janoblarining “Devoni Umarxon”igʻa forsiy abyotlar inshod qilingonigʻa qaraganda, qadimdan beri Fargʻonada forsiy tilni joriyligi maʼlum boʻlur” – deb maʼlumotlar keltiradi muftiy Mahmudxoʻja. Ushbu maʼlumot ham oʻzbek xalqi hayotida fors tilining ahamiyatini belgilaydi. Shuningdek, Turkistonning oʻziga tegishli boʻlgan shevasi turk tilining chigʻatoy lahjasi boʻlib Alisher Navoiyning asarlari aynan shu lahjaning muhim kitobi boʻlib qolganligi haqida ham bayon qiladi. Shunday boʻlsa-da, fors tilining aynan qay bir hududda koʻproq qoʻllanilishi va yana qay bir hududda nisbatan kamroq foydalanilishi ham muftiy Mahmudxoʻja Behbudiy tomonida tahlil qilinganini quyidagi maʼlumotlar orqali bilib olamiz: “Turkiston sharqida forsiyning hukmi ozayib, boʻvujud shul ulamo orasinda oz boʻlsa-da soʻylanur. Turkiston janubi va Turkiston afgʻoniya boʻlsa turkiy va forsiy tili barobardur. Turkistonning Movaroi-bahri Hazar qismigʻa aksariyat ila Turkman shevasi hukmfarmo boʻlsa ham Eron va Afgʻoniston va Buxoroning hamsoyaligi sababidan yana forsiyning nufuzidan qutulib boʻlmaydur. Xivaga kelgancha, muning tili yana usmonlichagʻa yaqin boʻlub, faqat arabiy va forsiy qoʻshumchalari ozdur. Xulosa shulki, nafs Turkiston, Buxoro, Xiva, Turkistoni afgʻoniy va Koshgʻar oʻlkalarindagi turkcha shevasi doxilana oʻn qadar buzuq va tuzuk lahjagʻa ayrilib, ammo bu lahja ila soʻylaydurgonlarning har biri boshqasining soʻzigʻa tushunadurlar”.

Yuqoridagi maʼlumotlar muftiy Mahmudxoʻja Behbudiyga oid boʻlib, u tomonidan oʻz davrining ziyoli shaxsiyati sifatida tilning shakllanish, rivojlanish va muomalada qoʻllanilish jarayonlariga ham alohida eʼtibor qaratilganiga amin boʻlishimiz mumkin. Maʼlumotlarni keltirar ekan, “Xivaga kelgancha, muning tili yana usmonlichagʻa yaqin boʻlub” jumllarini qoʻllagan muftiy Mahmudxoʻja Behbudiy turk tilini koʻzda tutgan boʻlsa ajab emas. Chunki bugunki kunda ham Xorazm aholisining tili turk tiliga yaqindek koʻrinadi goʻyo. Inson uchun oʻz tilida soʻzlarini adabiy ravishda bayon qilish mushkul vazifa boʻlsa kerak. Chunki bunday vazifani koʻpincha notiqalar, shoirlar, yozuvchilar, soʻzamon odamlar, soʻz ustalari uddalay olishadi. Mahmudxoʻja Behbudiy tomonidan til masalasida alohida eʼtibor berilgan yana bir jihati shuki, uning oʻz taʼbiri bilan aytganda “tilni butun soddalashtirub indurmoq va yoyinki adabiylashturub taraqqiy qildurmoqdan betarafona yozarman”. Har bir kishining oʻz soʻzlarini badiiy uslubda boshqalarga yetkazib bera olishi nutq soʻzlayotgan vaqtda ham, oddiy soʻzlashuv vaqtida ham boshqalarning eʼtiborini

o'ziga jalb qilishiga sabab bo'ladigan muhim omil hisoblanadi. Aynan ko'pchilik odamlarning ayrim kamchiliklari ham, ba'zi muammolari ham shu masalada ekanini ko'p guvohi bo'lasiz. Ko'p ilmlarni egallagan, olimlik darajasiga erishgan shaxs bo'lish mumkin, lekin so'zlardan mohirona foydalanib, inson qalbiga yetkazib bera olmasa, bunday shaxs o'zining bilimi va aql-idroki bilan ijobiy tarzda jamiyatga ta'sir o'tkaza olmaydi. Shuning uchun ajdodlarimiz ham, yoyinki tarixda iz qoldirgan barcha tarixiy shaxslar ham notiq bo'lganlar. Tarixiy janglar, fathlardan avval sarkardalarning inson ruhini tetiklashtiradigan, qo'rquvdan uzoqlashtiradigan, vatanparvarlik hissini oshiradigan so'zlarning qo'shin qo'mondonlari tomonidan so'zlangani va buning natijasi g'alab bo'lgani haqida ko'pdan ko'p tarixiy ma'lumotlar mavjud. Bunday tarixiy voqealarni adabiyotshunoslar "so'z qudrati" va shu kabi boshqa ta'riflar bilan ifodalaydi. Aynan Mahmudxo'ja Behbudiyning o'zi ham islom tarixiga oid maqolalarining birida Andalusiya fathi haqida so'z yuritar ekan, jang boshlanishidan avval sarkardaning nutq so'zlaganini va uning nutqi qay tarzda bo'lgani haqida batafsil ma'lumotlar bergan. Demochimizki, badiiy uslubda so'zlarni mohirona qo'llay olish har bir soha vakili uchun muhimdir. Shuning uchun ham muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy bu haqda batafsil bayon qiladi va matbuotda yoritiladigan barcha materiallarni o'ziga xos uslubda bo'lib, so'zlashuv uslubidan farq qilishi haqida shunday yozadi:

“Matbuot maydonig'a bizdan muqaddam otilgan va dastalar ila jarida va majallalarg'a sohib bo'lgan Ichkari Rusiya va Kafkaz musulmonlarini matbuot tili va ham ko'cha tilig'a diqqatlik kishig'a ma'lumdurki, matbuotlari ko'cha tilidan necha daraja oliydur. Va kundan-kun yana oliylashmoqdadir. O'ram tili tarafdori bo'lgan ba'zi tatar matbuoti yildan-yilga adabiyg'a aylanmoqdadir. Masalan, “Vaqt”, “Sho'ro”, “Yulduz” jaridalarining avvalgilari ila hozirgisini taftish qilinsa, hozirgilarini(ng) adabiyliги zohir bo'lur. Kafkaz matbuoti avvaldan adabiy bo'lub, o'n sanalardan beri matbuot, qog'oz ustindagi adabiy tilni, xalqni til va so'zig'a ta'sir etib o'tkardiki, bul o'shal viloyatlarda diqqat etganlarga ma'lum bo'lur”².

Yuqoridagi iqtibosdan anglashiladiki, muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy nafaqat o'z diyorimizdagi matbuotda tilning ro'li qay tarzda ekanligini kuzatgan, balki boshqa xalqlarning ham matbuoti va ularda tilning ahamiyati qay tarzda o'zgarayotganini ham guvohi bo'lgan va kuzatib turgan. Ularning har birini tahlil qilgan. Yuqoridagi iqtibos faqatgina matbuot haqidagina edi. Bundan tashqari muftiy Mahmudxo'janing maktabda o'qitiladigan risolalar va kitoblarda ham tilning ro'li qay tarzda ekanligiga e'tibor qaratgani ham yaxshi ma'lum. Til masalasining muhim ekanligini keyinchalik barcha his qildi. Chunki til davrga qarab o'zgarib boradi. Mahmudxo'ja Behbudiy ham uni sodda va xalq uchun qulay bo'lishi tarafdori edi. Maqolalaridan birida

² Behbudiy, Mahmudxo'ja Tanlangan asarlar. J.2. – Toshkent: Akademyashr, 2021. 30-bet

Mahmudxo'ja Behbudiy ham ushbu mavzuga oid bo'lgan bir iqtibosni keltirib o'tadi. Quyida o'sha iqtibosni havola qilamiz:

“Til masalasi” muharrirlaridan biri der: “Tillar zamon ila isloh bo'lur, birdan isloh etilmaslar”. Sodda til nima uchun kerak? Mavjud ilmu fan va tarixni bilmoq va alardan foydalanmoq uchun. Endi bizg'a lozimki, atrof, ya'ni tevaragimizni adabiy lashtursak. Munavvarlashtursak, ya'ni ilm va fan ila yorutsak. Ilmu fan bo'lsa, bizni tilg'a tobe bo'lmay, balki bizni o'zig'a jabran tobe etar”.

Yana bir muhim masalaga e'tibor qaratiladi. Bu ham bo'lsa turkiy til va uning nufuzidir. Tarixdan yaxshi ma'lumki, mumtoz adabiyotimizning yirik nanoyobdalari ham o'zlarining asarlarini fors tilida yaratganlar. Sabablardan biri sifatida esa turkiy tilning boy emasligida deb ham ko'rsatiladi. Keyinchalik amir Alisher Navoiy adabiyot maydoniga turkiy tildagi asarlari bilan kirib kelgach, turkiy tilning ham naqadar boy til ekanligi anglashildi. Alisher Navoiy turkiy tilda “Navoiy”, fors tilida esa “Foniy” tahallusi bilan ijod qila boshlagan edi. Mahmudxo'ja Behbudiydan ushbu masalada quyidagi iqtibosni keltiramiz:

“Bir necha ming sanadan beri forsiy va arab tili va madaniyati va saltanati ta'siri ostida qolgan turkiy ni yana bir necha ming sanada bularni ta'siridan chiqarmoq nari tursun, balki ma'nau va moddatan va fannan mahkum millatlarni lug'atlari hujum etar”.

Ushbu so'zlarning xulosasi ham bor. Biz o'z tilimizni muhofaza qilishimiz kerak. Bugungi kunda diyorimizda xalqimiz tomonidan foydalanilib kelayotgan til hozirgi o'zbek adabiy tilidir. Uning adabiyligini saqlashimiz zarur. Buning uchun til uslublaridan o'z o'rnida foydalanishimiz kerak. Zarur joyda so'zlashuv uslubidan bo'lsin, yoki badiiy uslub, yoyinki publisistik uslubdan bo'lsin, til me'yorlariga va qoidalariga amal qilishimiz, uning badiiyiligini saqlab qolishimiz kerak. Bu bizning xulosamiz emas, balki muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy kabi o'z tili uchun qayg'urgan millatning ulug' farzandlarining xulosasidir. Quyidagi xulosa esa aynan muftiy Mahmudxo'ja Behbudiyga oiddir:

“Xulosa, fikrimiz shuki, yolg'uz turkcha so'ylashmak va yozmoq abadan mumkin yo'q. Baqadri imkon arabiy, forsiy ni oz yozayluq. Barcha ilmu fan istiloh va lug'atlarig'a turkchadan axtarib vaqt ni zoye etmayluk. Taraqqiy etgan turkiy shevadagi ilmiy va fanniy kitoblarni anglamoqg'a sa'y va g'ayrat etayluk. Kelar zamon uchun hozirlanayluk, o'tgan zamon uchun emas. Ona tili, ona tili... Bu yaxshi orzu. Ammo tilsiz onalar tiliga maktabiy kitoblar yozila bersa, Turkistonda adadsiz buzuq ona tillar shevasig'a adadsiz kitoblar yozmoq lozim kelurki, Andijonda yozilgani Buxoroda, Avliyootada yozilgani Qarshida anglashilmaydur. Chunki bu onalarni tili bir-biridan farqlidur”³.

³ Behbudiy, Mahmudxo'ja Tanlangan asarlar. J.2. – Toshkent: Akademyashr, 2021. 34-bet

Muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy e'tiborini tortgan ba'zi til masalalari xususida so'z yuritdik va anglashildiki, bu muhim masala. Shayx doktor Usmonxon Alimov "Oilada farzand tarbiyasi" nomli asarida ham adabiy so'zlashish masalasiga alohida e'tibor qaratgan va "Sof adabiy tilda so'zlashish" nomidagi mavzu ostida qiziqarli ma'lumotlarni bo'lishgan. Adabiy tilda so'zlashish haqidagi Shayx doktor Usmonxon Alimov tomonidan keltirilgan ma'lumotlar quyidagicha:

"Tilning fasohati va shirinso'zlik inson ziynati. Ali ibn Husayn (roziyallohu anhu) rivoyat qiladi. Ibn Abbos (roziyallohu anhu) Rasulullohga (sollallohu alayhi va sallam) yuzlandilar. Ul zotning ustilarida ikkita kiyim bore di. Ibn Abbosning kiftida esa ikki o'ram soch bo'lib, oppoq edi. Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) amakilariga qarab turib, tabassum qildilar.

Shunda Ibn Abbos: "Yo Allohning Rasuli, sizni kuldigan narsa nima?" dedi. Payg'ambar (alayhissalom): "Payg'ambarning amakisining jamoli meni ajablantirdi", dedilar. "Jamoli nima?" dedi Ibn Abbos. "Fasohatli til", dedilar (Hokim rivoyati).

Abu Hurayra (roziyallohu anhu) rivoyat qiladi, sahobalar: "Yo Allohning Rasuli, nega bizning fikrimiz siznikidek fasohatli emas?" dedilar. Nabiy (alayhissalom): "Alloh taolo meni qo'pol gapiruvchi qilib yaratmadi. Menga so'zlarning yaxshisini ixtiyor etdi: u esa O'zining Qur'on kitobidir", dedilar (Sheroziy va Daylamiy rivoyati).

Kishi og'ir-bosiqlik bilan shoshmasdan, dona-dona qilib, eshitayotganlarni zeriktirib qo'ymasdan, imkon qadar chiroyli so'zlar bilan gaplashishi lozim. Fasohatli so'zlash Rasuli akramning (sollallohu alayhi va sallam) sunnatlaridir. Go'zal va ravon so'zlagan hazrat Ibn Abbos (roziyallohu anhu) Payg'ambardan (alayhissalom) maqto'v olgan ekanlar"⁴.

So'zlashishda ham imkon qadar adabiy so'zlardan foydalanish go'zal odob ekanligi ham ko'rib o'tildi. Shayx doktor Usmonxon Alimovdan iqtibos keltirishimizning yana bir sababi shundaki, o'z davrida muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan e'tibor qaratilgan til masalasiga undan keying ulamolarimiz ham e'tibor qaratganlar. Til masalasi muhim bo'lib, bundan keyin ham olimlar, soha vakillarining e'tibor markazida bo'lib turaveradi. Shunday ekan uning rivoji, taraqqiyoti va muhofazasi yo'lida yoshlarimiz ham bellarini mahkam bog'lashlari, yuqorida muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan berilgan tavsiyalarga quloq tutishlari zarur bo'ladi.

Foydalanilgan manba va adbiyotlar ro'yxati:

1. Behbudiy, Mahmudxo'ja Tanlangan asarlar. J.2. – Toshkent: Akademyashr, 2021. 312-bet
2. Oilada farzand tarbiyasi / Usmonxon Alimov; mas'ul muxarrir: Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: "Movarounnahr", 2018. – 460 b.

⁴ Oilada farzand tarbiyasi / Usmonxon Alimov; mas'ul muxarrir: Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: "Movarounnahr", 2018. – 460 b.